

**O'RTA OSIYO UMURTQALI HAYVONLARI VA ULARNI
MUHOFAZA QILISH CHORA-TADBIRLARI**

Ziyoiddinova Salomatxon Shavkatbek qizi,

Rejabaliyeva Madinaxon Tursunboy qizi

ADPI Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'rta Osiyo umurtali hayvonlarini xilma-xilligi, ekologik moslashuvi va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlari qisqacha keltirildi.*

Kalit so'zlar: *O'rta Osiyo, umurtqali hayvonlar, tabiiy, qo'riqxon, buyurtmaxona, noyob, muhofaza qilish.*

Аннотация: *В статье кратко представлены разнообразие, экологические адаптации и меры по сохранению позвоночных животных Центральной Азии.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, позвоночные, природный, заповедник, резерв, уникальный, сохранение.*

Abstract: *This article briefly presents the diversity, ecological adaptations, and conservation measures of Central Asian vertebrates.*

Keywords: *Central Asia, vertebrates, natural, reserve, reserve, unique, conservation.*

O'rta Osiyo hayvonlarga boyligi va hayvonlarning har xilligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Bu birinchidan, o'lka hududi tabiiy sharoitining turli-tumanligi—qumli, taqirli tekisliklardan hamda adir va tog' landshaftlaridan tashkil topgan. Ikkichidan, unda turli o'simlik qoplami qalin bo'lishi o'txo'r va yirtqich hayvonlarning geografik tarqalishiga sabab bo'lgan, o'lka tabiiy sharoitidagi tafovutlar ayniqsa, uning tekislik qismi bilan tog'li qismida yaqqol namoyon bo'ladi. Tekislik qismida cho'llarga va chalacho'llarga xos hayvonlar uchraydi.

O'lka faunasining turli-tumanligi uzoq geologik taraqqiyot tarixi davrida tarkib topganligi va boshqa hududlarning hayvonlari bilan aloqada bo'lganligiga

bog'liq. Shu sababli bu yerda endemik dayvonlar bilan birga O'rta Osiyo, Hind-Himolay, Yevropa-Sibir, Old Osiyo, hattoki Afrika kabi hududlarga xos bo'lgan turlari ham uchraydi. Tekislik zonasida ko'proq Afrika va Old Osiyoga xos hayvonlar turlari yashasa, aksincha, tog'larida Hind-Himolay, O'rta Osiyo, Yevropa, Sibirga mansub bo'lgan hayvon turlari ko'proq uchraydi. *Cho'l echkemari, bo'z echkamar, charxilon, chiyabo'ri, barhan mushugi, jayron, karakal* — Afrika va Old Osiyodan o'tgan; *sirtlon, chiyabo'ri, plastinkasimon dumli kalamush, ko'zo'ynakli ilon* — Hindistondan o'tgan; *katta qum sichqoni, kichik qushoyoq, qumgir yumronqoziq, oq qumsichqon, antilopa, qo'ng'ir ayiq, sayg'oq, kichik tulki, karsak* — Yevropa-Sibir zonasidan; *jayron, qora ilvirs, tog' takasi, arxar, qizil bori* — Markaziy Osiyodan kirib kelgan. Shular bilan bir qatorda, o'lka hududida paydo bo'lgan va boshqa joylarda deyarli uchramaydigan *Orol shipi va katta kurakburun baliqlari, Turkiston agamasi, Turkiston gekkoni, qum bo'g'ma iloni, xo'jasavdogar, Bobrinskiy qo'shoyog'i, ingichka barmoqli yumronqoziq, ko'k sug'ur, Tyanshan o'rmon sichqoni, qizil pishqicha, Oloy kaltakesagi* kabi endemik hayvonlar ham bor.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarning borgan sari jiddiylashuvi, ba'zi joylarda hattoki tang vaziyat mavjudligi tufayli atrof-muhit katta miqyosda shikastlanmoqda. Bu borada tabiatning eng nozik komponentlari — o'simlik va hayvonot olami zarar ko'rmoqda. O'rta Osiyo hayvonlarini muhofaza qilib, noyob turlarini ko'paytirishda qo'riqxona, buyurtmaxona, milliy bog' va „Qizil kitob“ni ahamiyati katta.

Milliy bog'da — aholining dam olishi uchun tabiiy komplekslarni saqlash va yaxshilashga katta ahamiyat beriladi. Ularda ko'p sonli sayyohlar, sportchilar, dam oluvchilar uchun barcha qulayliklar bunyod etiladi. Lekin tabiiy boyliklar — hayvonot olami va o'simliklarga nisbatan ehtiyotkor bo'lish alohida ta'kidlanadi. *Buyurtmaxona*—hududlarda tabiat komplekslarining ayrim komponentlari vaqtincha yoki muntazam ravishda qo'riqlanadi. Bunda ko'proq o'simlik, geologik, zoologik, landshaft turida buyurtmalar tashkil qilinadi.

Zoologik buyurtmaxonalar — kamyob, qirilib borayotgan yoki alohida

qiymatga ega bo'lgan hayvonlar, qushlar, baliqlar, hasharotlar, hayvonlarning migratsiya yo'llari yoki mavsumiy to'planadigan joylarida tashkil etiladi.

O'rta Osiyo va Qozog'istonda jami bo'lib 30 dan ziyod qo'riqxonalar mavjud bo'lib, ularning umumiy maydoni 2,3 million hektarni yoki mamlakat hududining atigi 1 foizini tashkil etadi. Ulka hududida bir qancha qo'riqxona va buyurtmaxonalar mavjud. Ularning eng muhimlari — Tortay botig'idagi **Naurzum** (*qushlar ekologiyasini o'rganadi*), Qozog'iston past tog'laridagi **Kurgalji** (*suvda yashovchi qushlar ekologiyasini o'rganadi*), Orol dengizidagi **Borsa-kelmas** (*sayg'oq, qulun, jayron, kum yumronqoziq muhofaza qiladi*), Ustyurt platosidagi **Qoplonqir** (*Ustyurt qo'yini, qora kulunni, gepard – qoplonni muhofaza qiladi*), Turkmanistondagi **Badxiz** (*qulunni muhofaza qiladi*), O'zbekistonidagi **Qizilqum** (*Buxoro yoki xongul bug'usini, jayron, to'qay mushugini muhofaza qiladi*), **Zarafshon** (*tustovuqkni muhofaza qiladi*), **Surxondaryo** (*ilvirs, qoplon, qizil sug'ur, shoxdor echkini muhofaza qiladi*), **Hisor** (*oq tirnokli ayiq, qoplon, qizil sug'urni muhofaza qiladi*), **Nurota** (*burgut, kaklik, alkar, suvsarni muhofaza qiladi*), **Notkol** (*ko'k sug'ur, ayiq, ularni muhofaza qiladi*), **Zomin** (*qo'ng'ir ayiq, tog' takasi, suvsarni muhofaza qiladi*), Tojikistondagi **Pakhlavon to'qay – Tigrovaya balka** (*Buxoro bug'usi, jayron, qirgovulni muhofaza qiladi*), Qirg'izistondagi **Issiqkul** (*g'oz, o'rdak, maral, qirg'ovulni muhofaza qiladi*), Qozog'istondagi **Olmaoti** (*tog' takasi, tog' qo'yi, maral, qor koplonini muhofaza qiladi*), **Oqsuv-Jabalg'a** (*tog' takasi va qo'yi, qor qoplani, jayra, ular, kaklikni muhofaza qiladi*). Hozirda qo'riqxonalarda o'sha hudud landshafti, shu jumladan hayvonot dunyosi tabiiy holicha saqlanib, ov qilish mutlaqo man etiladi.

O'rta Osiyo umurtqali hayvonlari biologik xilma-xillikning muhim qismidir va mintaqaning ekologik muvozanatini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. So'nggi yillarda tabiiy muhitning degradatsiyasi, inson faoliyatining ortishi va iqlim o'zgarishlari tufayli ko'plab turlar xavf ostida qolmoqda. Shu sababli, umurtqali hayvonlarni himoya qilish va ularning yashash joylarini saqlash borasida keng qamrovli chora-tadbirlar zarur. Yovvoyi tabiatni muhofaza qilish hududlarini tashkil etish, ekologik monitoringni yo'lga qo'yish va aholining ekologik madaniyatini

oshirish orqali hayvonlar populyatsiyasini barqarorlashtirish mumkin. Shuningdek, xalqaro hamkorlik va qonuniy asoslarni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Natijada, O'rta Osiyo umurtqali hayvonlarini muhofaza qilish mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1., O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi'' Toshkent-2002. P. Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov.
2. „O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi'' Samarand-2018. A.Alibekov.
3. „O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi'' Toshkent-2002. I.A.Hasanov, P.N.G'ulomov.
4. „Zoogeografiya'' Toshkent-2020. F.Xolboyev, D.Azimov, E. Shernazarov.
5. <http://www.ziyonet.uz>.
6. <http://www.pedagog.uz>.